

Sirdaryo viloyatida demografik holat

2026-yil yanvar-iyun oylari uchun

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 7-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 629-son qaroriga muvofiq, **aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishning yakuniy natijalari 2027-yil 1-iyulga qadar** tayyorlanishi belgilangan.

Ro'yxatga olishning yakuniy natijalari rasmiy e'lon qilinganidan so'ng doimiy aholi soni belgilangan tartibda, ro'yxatga olish natijalari asosida e'lon qilinadi.

Shu munosabat bilan **2026-yil 1-iyul holatiga demografik ko'rsatkichlar** Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligining ma'lumotlar integratsiyasi bo'yicha shakllantirildi.

- I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar
- II. Doimiy aholi soni
- III. Tug'ilganlar va vafot etganlar
- IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar
- V. Aholi migratsiyasi
- VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar

2026-yilning 1-iyul holatiga **ro'yxatga olish natijalarisiz** Sirdaryo viloyatining doimiy aholisi soni **952,6** ming kishini tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan **1,5** foizga ko'paygan. 2026- yilning yanvar-iyun oylarida tug'ilganlar soni **9,4** ming nafarni, vafot etganlar **2,2** ming nafarni tashkil etib, tabiiy o'sish **7,2** ming kishiga teng bo'ldi. Viloyatimizga xorijiy davlatlardan ko'chib kelganlar soni **15** kishini va viloyatdan xorijga ko'chib ketganlar soni **39** kishini, qayd etilgan nikohlar **2,3** mingtani, nikohdan ajralishlar **0,8** mingtani tashkil etgan.

Doimiy aholi soni

952,6 *ming kishi*

Tug'ilganlar soni

9,4 *ming kishi*

Vafot etganlar soni

2,2 *ming kishi*

Xorijdan ko'chib kelganlar

15 *kishi*

Xorijga ko'chib ketganlar

39 *kishi*

Nikohlar soni

2,3 *ming birlik*

Nikohdan ajralishlar soni

0,8 *ming birlik*

II. Doimiy aholi soni


Sirdaryo viloyatida doimiy aholi soni 2026-yilning 1-iyul holatiga ko'ra 952,6 ming kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 14,1 ming kishiga, yani 1,5 foizga ko'paydi. Doimiy yashash hududi bo'yicha shahar joylarda 409,2 ming kishi (jami aholi soniga nisbatan 43,0 %), qishloq joylarda esa 543,4 ming kishi (57,0 %) istiqomat qilmoqda. Ayollar soni 473,9 ming kishini (49,7 %), erkaklar esa 478,7 ming kishini (50,3 %) tashkil etmoqda.

Doimiy aholi soni, ming kishi (1-iyul holatiga, ming kishi)

	2025-yil	2026-yil	O'sish sur'ati, % da
Sirdaryo viloyati	938,5	952,6	101,5
Guliston sh.	103,4	105,3	101,8
Shirin sh.	19,4	19,3	99,5
Yangiyer sh.	49,6	50,6	102,0
<i>tumanlar</i>			
Oqoltin	57,0	57,7	101,2
Boyovut	142,7	145,2	101,8
Sayxunobod	84,7	85,9	101,4
Guliston	81,7	82,9	101,5
Sardoba	71,8	72,7	101,3
Mirzaobod	83,2	84,7	101,8
Sirdaryo	140,2	142,0	101,3
Xovos	104,8	106,3	101,4

Sirdaryo viloyatida 2026-yil 1-iyul holatiga ko'ra, 1 kvadrat kilometrda o'rtacha **222,8** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **3,3** kishiga ortgan (2025-yil 1-iyul holatiga 1 kv.km.ga **219,5** kishi).

Aholi zichligi, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni




III. Tug'ilganlar va vafot etganlar

Viloyatda 2026-yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan tirik tug'ilganlar soni **9384** kishini, har ming aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **19,9** promilleni tashkil etdi. Tug'ilganlar soni joriy yilning yanvar-iyun oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan **739** nafarga kamaygan.

Vafot etganlar soni **2196** kishini, har ming aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti **4,7** promilleni tashkil etdi. Vafot etganlar soni joriy yilning yanvar-iyun oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan **18** nafarga ko'paygan.


Tug'ilganlar va vafot etganlar soni,



Viloyatda tirik tug'ilganlar soni **9384** kishini, shundan o'g'il bolalar soni **4930** kishini (jami tug'ilganlar soniga nisbatan **52,5** %), qiz bolalar soni **4454** kishini (**47,5**%) va shahar joylarida **3925** kishini (**41,8**%), qishloq joylarida **5459** kishini (**58,2** %) tashkil etdi.

Viloyatda vafot etganlar soni **2196** kishini, shundan erkaklar **1198** kishini (jami vafot etganlar soniga nisbatan **54,6** %), ayollar **998** kishini (**45,4** %) va shahar joylarida **1041** kishini (**47,4** %), qishloq joylarida **1155** kishini (**52,6** %) tashkil qildi.

Tug'ilganlar va vafot etganlarning jinslar bo'yicha taqsimlanishi,




IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar

Viloyatda 2026-yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan nikohlar soni **2310** birlik, har ming aholiga nikoh koeffitsiyenti **4,9** promilleni tashkil etdi. Nikohlar soni joriy yilning yanvar-iyun oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan **82** birlikka kamaygan.

Nikohdan ajralishlar soni **865** birlik, har ming aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti **1,8** promilleni tashkil etdi. Ajralishlar soni joriy yilning yanvar-iyun oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan **91** birlikka ko'paygan.


Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni, ming birlik



Viloyatda qayd etilgan nikohlar soni **2310** birlikni, shundan shahar joylarida **998** birlikni (**43,2** %), qishloq joylarida **1312** birlikni (**56,8** %) tashkil etdi.

Viloyatda nikohdan ajralishlar soni **865** birlikni, shundan shahar joylarida **462** birlikni (**53,4** %), qishloq joylarida **403** birlikni (**46,6** %) tashkil qildi.

Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlarning shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi, ming birlik



V. Aholi migratsiyasi


2026-yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar jami soni **5045** kishini, shu jumladan respublikaning boshqa hududlaridan ko'chib kelganlar **5030** kishini, xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar **15** kishini tashkil etdi.

Ko'chib ketganlar jami soni **5900** kishini, shu jumladan respublikaning boshqa hududlariga ko'chib ketganlar **5861** kishini, xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar **39** kishini tashkil qildi.

Ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi

	Ko'chib kelganlar soni			Ko'chib ketganlar soni		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		ichki	tashqi		ichki	tashqi
Sirdaryo viloyati	5045	5030	15	5900	5861	39
Guliston sh.	1023	1023		1149	1140	9
Shirin sh.	139	138	1	252	252	
Yangiyer sh.	585	573	12	527	524	3
<i>tumanlar</i>						
Oqoltin	202	202		346	343	3
Boyovut	560	560		691	691	
Sayxunobod	301	301		404	401	3
Guliston	518	518		483	483	
Sardoba	206	206		366	363	3
Mirzaobod	545	543	2	484	484	
Sirdaryo	498	498		613	595	18
Xovos	468	468		585	585	

Xorijdan ko'chib kelganlar va xorijga ko'chib ketganlar soni, kishi



VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish maqsadida, Milliy statistika qo'mitasi bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi o'rtasida ma'lumotlar elektron almashinuvi bo'yicha ushbu vazirliklarning birlamchi ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilingan.

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish uchun zarur bo'ladigan barcha zaruriy ma'lumotlar integratsiya orqali elektron shaklda olinishi sababli, alohida statistika kuzatuv shakli tasdiqlanmagan.

Demografik ko'rsatkichlarni tavsiflovchi ma'lumotlarni shakllantirish maqsadida, statistika organlari tomonidan boshqa davlat organlari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi)dan olingan aholining tabiiy harakati va aholi migratsiyasi to'g'risidagi birlamchi ma'lumotlar qayta ishlanadi.

Demografik ko'rsatkichlar bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- tug'ilganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- o'lim haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikoh tuzilganligi haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikohdan ajralganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- ko'chib kelishni statistik hisobga olish varaqasi;
- ko'chib ketishni statistik hisobga olish varaqasi ma'lumotlari.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/814-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirishda-fuqarolik-holati-dalolatnomalari-va-statistik-hisob-talonlari-ma-lumotnomalarini-kodlashtirish-bo-yicha-qo-llanma>

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/853-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirish-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Demografiya, mehnat va gender
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
Sh. Abdullayeva
67 236-70-00 (20-70)

Manzil:

